



XALQ DEPUTATLARI O'ZBEKISTON TUMANI KENGASHI QARORI

2022 - yil 30 - dekabr

VI-59-181-11-161-K/22

O'zbekiston tuman hokimligi

O'zbekiston tumanining 2023 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuning 6, 24-moddalariga, "Byudjet kodeksi"ning 99-moddasi, "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni loyihasi, xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashining 2022 yil 30 dekabrda "Farg'ona viloyatining 2023 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-52-171-11-0-K/22-sonli qaroriga muvofiq hamda Farg'ona viloyati hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2022 yil 30 dekabrda 01/01-38/2755-sonli xatiga muvofiq Xalq deputatlari O'zbekiston tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Farg'ona viloyat Kengashining 2022 yil 30 dekabrda "Farg'ona viloyatining 2023 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni loyihasiga asosan ishlab chiqilgan xalq deputatlari Farg'ona viloyati kengashining 2022 yil 30 dekabrda "Farg'ona viloyatining 2023 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-52-171-11-0-K/22-sonli qaroriga muvofiq 2023 yilga O'zbekiston tumani mahalliy byudjetiga viloyat mahalliy byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 135,3 mlrd.so'm miqdorida tasdiqlanganligi hamda mahalliy byudjeti daromadlari 132,8 mlrd.so'm va xarajatlari esa 268,2 mlrd. so'm miqdoridagi prognozlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qarorga asosan 2023 yilda:

a) Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar 2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o'tkazib berilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

b) Quyidagi soliq turlari tuman mahalliy byudjetiga to'liqligicha o'tkazib berilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- aylanmadan soliq;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i;
- davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari;

v) Shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga quyidagi ulushlarda:

Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning 50 foizi;

Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aksiz solig'idan tushumlarning 20 foizi;

yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag'larining 50 foizi;
yuridik shaxslarning yer solig'i va mol-mulkiga solinadigan soliq hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushgan tushumlarning 50 foizi;

davlat byudjetiga undiriladigan jarimalarning 30 foizi;

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'idan tashqari) 50 foizi o'tkazib berilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin;

4. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2023 yil uchun prognoz ko'rsatkichlari **1-ilovaga** muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Tuman mahalliy byudjetidan 2023 yilgi hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. O'zbekiston tumani mahalliy byudjetining 2023 yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

7. 2023 yil uchun byudjet daromadlarining mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi bo'yicha ajratma me'yorlari **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

8. O'zbekiston tumani mahalliy byudjetining 2023 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

9. Qonunning 8-moddasiga muvofiq zaxira jamg'armalari mahalliy byudjetlarning tasdiqlangan xarajatlarining kamida 1 foizi miqdorida shakllantirilishi belgilanganligidan kelib chiqib, 2023 yil uchun tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 2,531 mlrd.so'm miqdorida **6-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

10. Tuman hokimligi zaxira jamg'armasi mablag'larini tuman byudjetida ko'zda tutilmagan, kechiktirib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishini ta'minlasin.

11. Qarorga ko'ra 2023 yil uchun tuman byudjetida yo'l qo'yiladigan eng kam mablag'lar o'tgan yilga nisbatan o'zgarishsiz ya'ni 719,0 mln.so'm miqdorda **7-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

12. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarning prognoz ko'rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag'larning tushish ehtimoli bo'lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko'rilayotgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan viloyat hokimligiga murojaat qilishi qonun bilan belgilanganligi inobatga olinsin.

13. Tuman hokimligi tashabbusi bilan qo'shimcha amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag'lar mahalliy byudjetning ijrosi davomida shakllangan qo'shimcha manbalar hisobidan amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yilsin.

14. Tuman hokimligi hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilar bilan birgalikda:

-tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarini yetarli darajada rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirilishini ta'minlash;

-mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro'yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarini moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar hokimliklar tomonidan majburiy tartibda o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirish;

-mahalliy byudjetning qo'shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo'lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirishni, veb-saytlariga ularning natijalarini joylashtirsin.

15. Tuman hokimligi byudjet daromadlari va xarajatlarining ko'rsatkichlarini bajarilishini ta'minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rish, byudjet mablag'lari taqsimlovchilarning byudjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanilishi hamda erishilgan natijalar Kengashga kiritib borilishini ta'minlasin.

16. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi v.v.b



**Xalq deputatlari tuman kengashi
raisi v.v.b N.Eshmatov**

Xalq deputatlari O'zbekiston tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-59-181-11-161-K/22-son qaroriga
I-ilova

O'zbekiston tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2023 yildagi asosiy prognoz
ko'rsatkichlari

| | | ming so'mda | | |
|------|---|-------------|-----------------|-------------|
| T/R | Daromad turlari | Jami | Jami daromadlar | 132 881 008 |
| I. | Rag'batlantiruvchi (Stimuliruyuvchi) daromad | 35 867 000 | | |
| | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i | 35 867 000 | | |
| | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i | 0 | | |
| II. | Biriktirilgan daromadlar | 56 704 600 | | |
| | Tuman va shaharlarga biriktirilgan | 27 762 000 | | |
| 1 | Yagona soliq to'lovi | 10 154 000 | | |
| 2 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (ITD) | 1 214 000 | | |
| 3 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i | 5 843 000 | | |
| 5 | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 10 159 000 | | |
| 6 | Ijara to'lovlari | 392 000 | | |
| | Viloyat va tuman (shahar)lar byudjetlari o'rtasida taqsimlanadigan daromadlar | 28 942 600 | | |
| 1 | Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS) | 6 734 400 | | |
| 2 | Noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq | 8 948 500 | | |
| 3 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 2 454 000 | | |
| 4 | Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i | 7 528 000 | | |
| 5 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 1 263 500 | | |
| 6 | Jarimalar | 2 014 200 | | |
| III. | Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo'yicha) | 40 309 408 | | |
| | <i>Aholi soni (ming kishi)</i> | | | |
| 1 | Alkogolga aksiz solig'i (shu jumladan pivo) | 16 307 221 | | |
| 2 | Mobil aloqaga aksiz solig'i | 6 994 850 | | |
| 3 | Tamaki mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i | 17 007 337 | | |

Xalq deputatlari O'zbekiston tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-59-181-11-161-K/22-son qaroriga
2-ilova

**O'zbekiston tumani mahalliy byudjetidan 2023 yilgi hududiy byudjet mablag'larini
taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari**

ming so'm

| T/r | Tumanlar byudjetlaridan mablag' oluvchi hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilar nomi | Summa (ming so'm) |
|-----------|--|----------------------|
| 1 | Maktabgacha ta'lim bo'limi | 26 787 015,0 |
| 2 | Xalq ta'limi bo'limi | 12 568 754,0 |
| 3 | Tibbiyot birlashmasi | 89 207 378,0 |
| 4 | Madaniyat bo'limi | 5 268 031,0 |
| 5 | Cportni rivojlantirish bo'limi | 5 587 746,0 |
| 6 | Bandlik va mehnat munosabatlari bo'limi | 776 902,0 |
| 7 | Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi | 1 319 841,0 |
| 8 | Irrigatsiya bo'limi | 1 925 291,0 |
| 9 | Qishloq xo'jaligi bo'limi | 505 635,0 |
| 10 | Tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (Markazlashgan hisobxona) | 295 444,0 |
| 11 | Obodonlashtirish boshqarmasi | 14 386 212,0 |
| 12 | Moliya bo'limi | 1 274 605,0 |
| 13 | Yoshlar ishlari agentligi hududi bo'limi | 6 832 798,0 |
| 14 | Kengash kotibiyatini saqlash xarajatlari | 204 154,0 |
| 15 | Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi | 5 996 992,0 |
| | shundan | |
| | O'zini-o'zi boshqarish organlari (MFYlar) | 5 482 193,0 |
| 16 | Hokimiyat | 95 312 803,0 |
| | shundan | |
| | Hokimlikni saqlash xarajatlari | 2 562 994,0 |
| | Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi | 6 752 234,0 |
| | Oila va xotin-qizlar bo'limi | 4 432 991,0 |
| | Ijtimoiy nafaqalar | 63 749 000,0 |
| | Ijtimoiy ko'nikma markazlari ("dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi" va markazni saqlash xarajatlari) | 188 871,0 |
| | "Tashabbusli byudjet" jamg'armasiga o'tkaziladigan mablag'lar | 13 178 254,0 |
| | Hokim yordamchilari tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun ajratilgan mablag'lar | 1 923 000,0 |
| | Zaxira jamg'armasi | 2 525 459,0 |
| | Xarajatlar jami | 268 249 601,0 |

Xalq deputatlari O'zbekiston tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-59-181-11-161-K/22-son qaroriga
3-ilova

**O'zbekiston tumani mahalliy byudjetining 2023 yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan
tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari**

ming so'mda

| № | Tuman | Tartibga soluvchi transfert miqdori jami |
|----------|--------------------|---|
| | JAMI | 135 368 593 |
| 1 | O'zbekiston tumani | 135 368 593 |

Xalq deputatlari O'zbekiston tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-59-181-11-161-K/22-son qaroriga
4-ilova

2023 yil uchun byudjet daromadlarining mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi bo'yicha ajratma me'yorlari

Fut. hisobida

| I/R | Shaxar va tumanlar soni | Korxonalar aylanmasidan soliq | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i | Yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i | Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i | Benzin, dizel yog'ig'isi va gani yuksak sifatli molchilarga raxabatlarga qilibdagi akiz soliq | Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq | Jismoniy shaxslardan yer solig'i | Qurilish materiallari bo'yicha yer qo'ldan foydalanganlik uchun soliq | Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari | Sav resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | Yuridik shaxslar yer solig'i | Yuridik shaxslardan mol-mulkiga solinadigan soliq | Jarimalar |
|-----|-------------------------|-------------------------------|---|---|---|---|---|----------------------------------|---|--|--|------------------------------|---|-----------|
| 1 | O'zbekiston tumani | 100 | 50 | 100 | 0 | 20 | 100 | 100 | 50 | 100 | 50 | 50 | 50 | 30 |

Xalq deputatlari O'zbekiston tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-59-181-11-161-K/22-son qaroriga
5-ilova

**O'zbekiston tumani mahalliy byudjetining 2023 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy
hajmi**

ming so'mda

| № | Hudud nomi | Daromad | Xarajat |
|-------------|--------------------|----------------------|----------------------|
| JAMI | | 132 881 008,0 | 268 249 601,0 |
| 1 | O'zbekiston tumani | 132 881 008,0 | 268 249 601,0 |

Xalq deputatlari O'zbekiston tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-59-181-11-161-K/22-son qaroriga
6-ilova

**2023 yilda O'zbekiston tumani mahalliy byudjetlarida zaxira jamg'armasi
miqdori**

ming so'mda

| T/r | Hudud nomi | Miqdor |
|------------|--------------------|--------------------|
| | JAMI | 2 531 123,0 |
| | <i>shundan</i> | |
| 1 | O'zbekiston tumani | 2 531 123,0 |

Xalq deputatlari O‘zbekiston tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-59-181-11-161-K/22-son qaroriga
7-ilova

**2023 yilda O‘zbekiston tumani mahalliy byudjetlarida aylanma kassa
mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori**

ming so‘mda

| T/r | Hudud nomi | Miqdor |
|------------|--------------------|------------------|
| | JAMI | 719 000,0 |
| 1 | O‘zbekiston tumani | 719 000,0 |